

SAYID RIZO ALIZODANING IJODIDA JAMIYATDAGI IJTIMOYIY ILLATLARGA QARSHI TANQIDIY YONDASHUVLAR

*Safarov Yunus Julmamatovich, O‘zbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Qatag‘on qurbonlari xotirasi
davlat muzeyi kichik ilmiy xodimi*

CRITICAL APPROACHES TOWARDS SOCIAL EVIL IN SOCIETY IN THE WORK OF SAYID RIZO ALIZODA

*Safarov Yunus Julmamatovich, Junior Researcher of the State
Museum of Memory of Victims of Repression under the Cabinet
of Ministers of the Republic of Uzbekistan*

КРИТИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К СОЦИАЛЬНОМУ ЗЛУ В ОБЩЕСТВЕ В РАБОТАХ САИДА РИЗО АЛИЗОДА

*Сафаров Юнус Жулмаматович, младший научный
сотрудник Государственного музея памяти жертв
репрессий при Кабинете Министров
Республики Узбекистан*



<https://orcid.org/0009-0001-0317-5549>

e-mail:

yunusjons844@gmail.com



Annotatsiya: Ushbu maqolada Sayid Rizo Alizodaning ijodida o‘zi yashab turgan davri siyosiy, madaniy, ijtimoiy-iqtisodiy masalalarni u tomonidan matbuotda yoritilgan, maqolalar va adabiy she‘riy satira janridagi mazmunda yozilgan ijod namunalari berilgan. Ya‘ni uning ijodiy ishlarida asosiy yo‘nalishlaridan biri bu ijtimoiy masalalarni chuqur tahlil asosida yoritishi millat va Vatan kelajak taqdiriga tug‘onoq bo‘lgan salbiy illatlarga qarshi kurash g‘oyasi asosiy o‘rin egallaydi. Bu maqolada keltirilgan fikrlar insonlarni fikrlashga undaydi.

Kalit so‘zlar: Jadidchilik, Behbudiy, Xoji Muin, G‘aybullas-Salom, Farjulla Maxmudov, S.Ayniy, Lohutiy, Oyina, Samarqand, Mashrab.

Аннотация: В данной статье представлены произведения Саида Ризо Ализода, отражающие политические, культурные и социально-экономические проблемы эпохи, в которой он жил, освещённые им на страницах печати, а также его публикации в жанре литературной поэтической сатиры. Одним из основных направлений его творчества является глубокий анализ социальных вопросов и идея борьбы против негативных явлений, представляющих угрозу будущему нации и Родины. Мысли, изложенные в статье, побуждают читателя к размышлению.

Ключевые слова: джадидизм, Бехбудий, Ходжи Муин, Гайбулла ас-Салом, Фаржуллa Махмудов, С.Айний, Лохути, “Ойина”, “Самарканд”, “Машраб”.

Abstract: This article presents the works of Sayid Rizo Alizoda, in which he addressed the political, cultural, and socio-economic issues of his time through newspaper publications, articles, and literary poetic satire. One of the main directions in his creative activity is the profound analysis of social problems and

the promotion of the idea of combating negative phenomena that threaten the future of the nation and the homeland. The ideas expressed in this article stimulate critical thinking in readers.

Keywords: *Jadidism, Behbudi, Khoji Muin, Ghaybullas-Salom, Farjulla Mahmudov, S.Ayni, Lohuti, Oyina, Samarqand, Mashrab.*

KIRISH

(ВВЕДЕНИЕ/INTRODUCTION). Sayid Rizo Alizoda deganda bizning ko‘z o‘ngimizga qadim Samarqandning XX asr boshlaridagi maorif va pedagogik sohalarida mehnat qilgan, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotidagi holatlarni matbuotda boricha yoritgan haqiqatparvar va ziyoli inson ko‘z oldimizga kelishi kerakdir. U yashagan davr va ijtimoiy siyosiy jamiyat muhiti ko‘plab qarama-qarshiliklarga ega bo‘lib, insondan teranroq fikrlashni talab etadi. Bir tomondan Buxoro Amirligining o‘rta asrlar tarzida davlat tutumi va zulmi, ikkinchi tomondan Chor Rusiya mustamlakachilarning xalqqa qilayotgan adolatsizliklar edi. Sayid Rizo Alizodani oddiy insonlarning hayoti, ular turmush tarzi oilalarning hayotiga qilinayotgan adolatsizliklar haqida matbuotda o‘zining fikrlarini baralla ifodali tarzda yoritishga sabab bo‘lgan. Ushbu mavzuni o‘rganish bugungi kunda eng dolzarb vazifalardan biridir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОДОЛОГИЯ / MATERIALS AND METHODS). Sayid Rizo Alizoda ijodi haqida dastlab izlanishlar o‘tgan XX asrning 60-yillardan boshlangan. G‘aybullas-Salom, 1964-yili nashr etgan “Til va Tarjima” kitobida o‘tgan asrning o‘ninchi, yigirmanchi, o‘ttizinchi yillarida S.A. imzosi bilan ko‘p rang-barang asarlar e‘lon qilgan muallif bilan qiziqib qolgani, xayolini mudom band etgani, vaqti-soati bilan jiddiy shug‘ullanishni niyat qilganini aytar edilar [1]. Shunday Said Rizo Alizoda hayotini o‘rganish uchun ilk qadam tashlandi. Bu esa hali Sovet davlati mavjud eng qattol yillarda bu kabi siyosiy ijodkor ayniqsa xalq dushmani deb qatag‘on qilingan insonni ijodi bilan qiziqib maqola va ilmiy izlanishlar olib borish bu katta jasorat ham edi. Bu dastlabki uning ijodiga bo‘lgan qiziqishlarning endi paydo bo‘lishi hali boshlanish debochasi edi.

Sayid Rizo Alizoda avvalo ziyoli edi. Ayniqsa u Behbudiyning “Oyna” jurnali

“Samarqand” gazetalarini tashkil etilishi va faoliyati davomida faol ravishda qatnashadi. Ismoil G‘asparali 1908-yil Samarqandda bo‘lib mahalliy jadidlar bilan uchrashadi. Hamda bu yerdagi jadidchilar faoliyati bilan yaqindan tanishdi. Mahmudxo‘ja Behbudiy bilan hamkorlikda “Samarqand” gazetasi va “Oyna” jurnallari tashkil etishdan davridan boshlab, u yerda ma’sul kotib lavozimida faoliyat ko‘rsatadi. Jadid ma’rifatparvari haqida o‘zining safdoshlaridan biri bo‘lgan Bog‘ishamolda yashovchi Farjulla Maxmudov Sayid Rizo Alizoda haqida shunday eslaydi: “Sayid Rizo Alizoda bilan 1905-yildan beri tanish bo‘lganmiz. U tuzgan yangicha tuzem maktabida savodim bo‘lsma ham kechqurunlari borib o‘qiganman. Dunyoviy, ma’rifiy, texnik fanlar, adabiyot, geografiya, tarix fanlaridan o‘zinning qarashlarim va bilganlarimni bilib boyitib borardim. Vaqt allamahol bo‘lib qolgan bo‘lsa ham Sayid dars o‘tishdan o‘rgatishdan charchamasdi. Men unga “Imro‘z ba mishud” desam, jahli chiqardi va qoshini chimirib “Faraj, senga bunaqa gap yarashmaydi”, deb jiddiy tus olardi va ertalabgacha bo‘lsa ham boshlagan narsasini tugatardi”.

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Farjulla Mahmudov birgalikda Bog‘ishamolda ko‘plab ezgu ishlarni olib boradilar. Keyinchalik qamoqqa olinganda bu do‘stlikka sovetlar tomondan siyosiy tus berilib ikkalasi ham qamaldi. Farjulla Mahmudov bir yilda qamoqdan chiqib Sirdaryo viloyatida ishlay boshlaydi. Sayid Rizo Alizoda esa umrini qamoqda tugatdi. Albatta, bir jadid ma’rifatparvar olim tinim bilmas, kunduzlar maktabda o‘qituvchilik qilar, kechalari bilan mutolaa va ijod bilan band bo‘lard. Bu haqda uning oila a‘zolari xotiralarida nabirasi Farhod Alizoda o‘z bobosi haqida yozgan kitobida Mumina buvisidan eshitgan xotiralarni keltirib o‘tadi. 1904-yil 1-maydan S.R.Alizoda inqilobiy yashirish bo‘lgan bosmaxonada ishlay boshlaydi. Bu yerda “Samarqand” gazetasi nashr etilgan[2]. Tabiiyki, Sayid Rizo Alizoda bu yerda turli mavzudagi davlat

ichidagi va dunyoda bo'layotgan yangiliklar bilan tanishib o'zi ham ularga fikrlarini bildirgan holda o'z maqolalarini chiqarib borgan. Mixail Morozov ismli shaxs gazetaga rahbar bo'lgach tahririyatning ijtimoiy va iqtisodiy hayoti ancha yaxshilanadi. Sayid Rizo Alizoda o'z yurtdoshlariniyam shunday yaxshi maosh va ishlarda ishlashini istaydi, biroq bunga xalqning o'zi til bilmasligi, o'z huquqlarini to'liq bilmasligi, diniy va shariatning katta to'siqligini tushunadi. Aholini madaniy saviyasini ko'tarish kerakligini chuqur anglab yetadi.

NATIJALAR (PEZYJBTATY / RESULTS). Sayid Rizo Alizoda bu nopok illatli amaldorlar va siyosiy rahbarlarni matbuotdagi chiqishlarida tanqid qildi. Ayniqsa ayrim dindor ulamolarning xatti-harakatlari uning qalami bilan savalandi. "Samarqand afandining bir kun keyin ro'za tutib, bir kun keyin, ayni chahorshanba kuni bayram qilmog'i – Toshkandning siyosiy doiralarda bir kub qilvoqlarig'a bayat bo'lg'on. Ulamo sinfi bir og'izdan Samarqand afandining bul ishini ondagi shubhalik ta'siridan ko'radir. Samarqand afandi esa o'zi shubhalik taxmindin qutulmoq uchun, bu yil ro'zani 29 kun qaror berib, sehshanba kuni iyd qilmoqchidir. Lekin "mening baxting'a maskur kecha havo bulut bo'lib, shohidlarning ko'zig'a ushal yulduz ham ko'rinmasa, qaysi xiyla shariya ila raiyat holig'a shahodat bersalar ekan"[3], - deb o'ylovdadir. Bu kichik maqola xalqimizning islomiy arkonlardan biri ro'za haqidadir. Ushbu maqolada muallif Samarqand afandi ismli kishi haqida uning o'z manfaati yo'lida qilgan qallobliklarini ko'rsatib o'tadi. Ya'ni sodda xalqni bu kabi riyokor insonlardan himoya qilish uchun ham matbuot kuchli qurol ekanini Sayid Rizo Alizoda juda yaxshi anglagan. Shu bois ham Sayid Rizo biror maqola yoki voqea haqida yozishdan oldin u hodisani chuqur tahlil qilgan.

Har bir jadid dindorlar qatlamlar uchun ularning ko'ziga balo bo'lib ko'rinardi. Chunki masjidlar, madrasalar avlodlarning kelajagi, ularning boshqaruvi ostida bo'lib keldi. Mana shu sababdan ham ma'rifatparvar jadidlarni ular kofir, dahriy va hokazo so'zlar bilan kamsitishgan. Chunki jadid ziyolilar eski ta'lim, davlat boshqaruvi bilan endi yashab bo'lmasligini yaxshi bilganlar.

Sayid Rizo Alizoda ham shu maqsadda xalqni doimiy qorong'u parda ortida qolib ketmasligi uchun ilm-ma'rifatga chaqirdi. Uning feletonlarida ham bu borada fikr yuritar ekan, muallif Turon xalqlarini: "Bazi bir kofirlarning: "Sart ahmoq, totar ahmoq, qozoq ahmoq, alhosil turli ismlar taxtinda dunyoda yashagan musulmonlar hammasi ahmoq" [4]. Ko'p achchig'im kelib xada pirimiz fursat bersa men o'zimizning ahmoq emasligimizni va bil'aks olarning o'zlari ahmoq ekanligini isbot etarmen, deb yurur va kunlarning birinda ushbu maqsadimga yetarman deb ishonur ham edim. Chunki bir zamon butun kofirlar musulmonlarni ilmda, marqatda ko'p pastda qolg'onlar deb tahqir etarlar va olarg'a ergashib o'zimizning taraqqiyparvarlarimiz bilan jadidlarimiz ham musulmonlardan kulub jadidat aslo qurmasdan musulmonlarni nodon, johil va har millatdan keyinda qolg'on bir qum deb suylab yururlar edi.

Ushbu so'zlarga ham juda achchig'im kelib yurib-yurib bir kun shul so'zlarning durust bo'lmog'onlig'ini, balki ruslarning o'zlari bizdan keyinda ekanliklarini misollari bilan isbot etkan edim". Ya'ni kimda-kim turkiylarni ajnabiylar ahmoq deganlari ziyoliga qattiq ta'sir qiladi, biroq undan ayanchlisi o'zimizning jadidman degan ziyolilar ham ularning fikrini ma'qullaydi deydi. Ya'ni bu yaqin tariximizda ham o'zaro ixtilofli illatlar sobiq tuzumga ta'zimda bo'lib xizmat qilgan sotqin ziyolilarni nazarda tutadi. Albatta, Turkiston xalqlari uchun ozodlik oltindan qimmat turgan. Hech qachon xalqimiz biror bir istibdodga shunchaki qullik qilib yashamagan. Doimo goh oshkora, goho yashirin ravishda bo'lsa-da kurashlar olib borishgan.

Bu o'tgan XX asr boshlarida ham shunday bo'ldi. Bu harakatlarida qatnashgan ajdodlarimizni bizga mustamlakachilar "bosmachilar", "xalq dushmani" deb o'rgatib keldilar. Ularga o'zimizning qo'shtirnoq ichidagi mutaassib diniy ta'lim beruvchi mudarrislar ham zamonaviy o'zgarishlarga qarshi turishgan. Bu kabi yolg'on va bo'htonlar ichra qolgan mazlum xalqimizni oq va qorani ajratishda, jadidlar katta ishlarni amalga oshirdilar. Sayid Rizoning quyidagi fikrlari ham buni tasdiqlaydi. "Menam bir Xo'jajon degan

do'stim bor edi. Shul kishi kichikdin beri yaqin ko'rgan bir oshnam bo'lub, ikkovimiz "Go'rkovlar" mahallasidagi Sufi domladan o'n bir yillar miqdori maktabda o'qub mullo bo'lub chiqq'on edik. Kamol oshnoligimizdan ikkovimiz ham bir pirga xizmat etib zo'r kamolot topg'on edik. Pirimiz ulug' va dindor bir kishi bo'lub dunyoviy ishlarga aslo ixlosi yo'q, mumkin qadar bizni ham oxirat ishlari bilangina mashg'ul bo'lmoqg'a targ'ib va tashviq qilur edi. Bu xususa usul jadida bilan g'azita (gazeta) va jurnallarni o'qushg'a pirimiz ko'p doshmon bo'lib bularni qullarig'a tutg'on kishilarni ham kofir deyur edi".

Sayid Rizo Alizodaning ham "Shapaloq" turkumidagi maqolalari har biri, jamiyatdagi adolatsizlik va chirkin illatlar ustidan satirik she'rlari bilan tanqid qiladi. Jamiyatni va davlatni halokatga olib boruvchi illatlardan biri bu "poraxo'rlik"dir. Buni "Pora ber" degan she'rida juda ta'sirli ravishda tasvirlab o'tgan. Sayid Rizo Alizodani jadid ma'rifatparvari sifatida jamiyatdagi bu kabi holatlarni ko'rish va ular bilan birga zamondosh bo'lib yashash og'ir edi. Mahalliy sotqin ayrim amaldorlar chor ma'murlari va bolsheviklar bilan kelishib o'z xalqini toptashda davom etardilar.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Albatta bu ishlarga Sayid Rizo Alizoda jimgina qo'l qovushtirib o'tirmaydi. O'ziga nisbatan ham o'ta talabchanligi bo'lgani uchun matbuotni juda kuchli qurol ekanini bilgan holda, gazeta va jurnallarda aksariyat tanqidiy maqolalar chop etadi. Chunki bu matbuot butun chor imperiyasi va qo'shni davlatlarga tarqalib mustamlakachi va mahalliy ma'murlarning asl yuzlari fosh bo'lardi. Bu esa chor hukumati va bolsheviklarni dunyo mamlakatlari oldida xalqaro miqyosda ham ba'zida noqulay ahvolga solib qo'yardi. Xulosa shuki, uning ijodi sermahsul va har tomonlama insonni mulohaza qilishga chorlaydi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Umirov S.R. Alizoda Samarqandlik mutafakkir. Hurriyat gazetasi. 2008-yil.
2. Saidrizo Alizoda// Murosilot (maktublar) //Samarqand davlat chet tillar instituti nashriyoti// Samarqand. 2022-yil, 16-17-bb.
3. Umirov S.R. Alizoda Samarqandlik mutafakkir. Hurriyat gazetasi. 2008-yil.
4. Qizil matbuot. G'.G'. Mehnatkashlar tovushi gazetasi. 1918-yil, № 6.

